

FERMER XO‘JALIKLARINI SOLIQQA TORTISHNING XORIJ TAJRIBALARI

Amanov Akram Mirzayevich

Toshkent moliya instituti,

"Soliqlar va soliqqa tortish"

kafedrasi professori

Annotatsiya. Maqolada fermer xo‘jaliklarini soliqqa tortishning xorij tajribalari o‘rganib chiqilgan, unda fermer xo‘jaliklari tomonidan to‘lanadigan soliqlarning ahamiyati, iqtisodiy islohotlar o‘tkazish jarayonidagi o‘rnii yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, fermer xo‘jaliklari, soliq tizimi, soliqqa tortish uslubiyati, soliq turlari, yer solig‘i, soliq imtiyozlari, soliqlarni to‘lash tartibi.

Аннотация. В статье рассматривается зарубежный опыт налогообложения фермерских хозяйств, подчеркивается значение налогов, уплачиваемых фермерскими хозяйствами, и их роль в процессе экономических реформ.

Ключевые слова: сельское хозяйство, фермерские хозяйства, налоговая система, метод налогообложения, виды налогов, земельный налог, налоговые льготы, порядок уплаты налогов.

Annotation. The article examines foreign experiences of taxing farms, highlights the importance of taxes paid by farms and their role in the process of economic reforms.

Keywords: agriculture, farms, tax system, taxation method, tax types, land tax, tax benefits, tax payment procedure.

Globallashuv sharoitida jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agrar tarmoqning jadal o‘sishi mamlakatda umumiqtisodiyotning o‘sishi uchun asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun istiqbolda mamlakatimizning butun iqtisodiyoti barqaror va uzuksiz rivojlanishi uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar muvozanatida qishloq xo‘jaligning o‘rniga alohida e’tibor berishimiz lozim.

Davlat zarur ehtiyojlari kamayganligi tan olishi bilan soliqlar eng kam darajaga tushiriladi, bunday daraja bir tomonidan, davlat xarajatlari kamayganligi bilan asoslansa, ikkinchi tomonidan, belgilangan doirada yuridik va jismoniy shaxslar uchun yuksak imkoniyatlarni ta’minlab beruvchi soliq tizimini shakllantiradi hamda soliqqa tortishning iqtisodiy jihatini ifodalab beradi.

Hozirgi vaqtida dunyoda mamlakatlari amaliyotida qat’iy amal qiluvchi soliq tizimining mavjudligi, uning iqtisodiyoti yuksak darajada taraqqiy etganligining belgisi bo‘lib hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekistonda ham soliq tizimini jahon

andozalari darajasida shakllantirish, bozor munosabatlarini yakdillik bilan davom ettirishda muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini soliqqa tortishning bir qator iqtisodiy sektorlar bilan bog‘liq. Shu bilan birga an‘anaviy agrar sektorga ma’lum bir imtiyozlar hamda soliqqa tortishning maxsus rejimi qo‘llaniladi, ya’ni, maxsus ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu xususiyatlarga fasllar almashinushi, ob-havo sharoitlari va kichik ishlab chiqarishlarni misol qilish mumkin. Qishloq xo‘jaligida soliq siyosatining maqsadi har xil muammolarni yechishga qaratilgan bo‘lib, ba’zi bir holatlarda uni subsidiya instrumenti deb ko‘rsatib o‘tishadi, lekin bu unday emas. Qishloq xo‘jaligida soliqqa tortishning fiskal maqsadlari shundan iboratki, soliqlar resurslarga talabning elastik yoki noelastik holatida qo‘llanishiga bog‘liq. Shu jumladan yer noelastik talabga ega, shuning uchun yer solig‘ining o‘sishi quyidagi qoida bilan izohlanadi: yer solig‘i bo‘yicha byudjet tushumlarini ko‘paytirish, o‘z navbatida mineral o‘g‘itlarga nisbatan qo‘llaniladigan soliqlarni kamaytirishga olib keladi.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining soliqqa tortish tizimi yanada soddalashtirishga qarab ketmoqda, shu jumladan, amaldagi soliqlarning qisqarishi (ularning unifikatsiya qilinishi), soliq stavkalarining pasaytirilishi orqali soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish nazarda tutilgan.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari byudjetga soliqlardan tashqari boshqa iqtisodiy sub’ektlarga ham ijtimoiy to‘lovlar to‘laydilar. Soliqlar va soliqlarga tenglashtirilgan to‘lovlar asosidagi munosabat hamma mamlakatlarda farqlanadi hamda bu holat aholini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatiga bog‘liq hisoblanadi. Eng yuqori ijtimoiy to‘lovlar soliq to‘lovchilarining umumiyligi summasida qishloq xo‘jaligi bo‘yicha Fransiyaga to‘g‘ri keladi, ya’ni, umumiyligi to‘lovlar miqdorida qariyb 50 foizni tashkil etadi.

Xorijiy mamlakatlar amaliyotida soliqlar differensiatsiyalashgan bo‘lib, ularni barcha yuridik va jismoniy shaxslar to‘lashi shart, faqat ular soliqlarni soliq ob’ektidan yoki daromad olish darajasidan kelib chiqib to‘lab beradilar. Qishloq xo‘jaligida soliqlar umum davlat va mahalliy soliqlarga bo‘linadi. Shu bilan birga agrar sektorda soliqlar milliy darajada deyarli bir xil hisoblanadi, lekin mahalliy soliqlar sub’ektlar joylashgan hududga, maxsus geografik xususiyatga hamda mahalliy byudjet daromadlaridan kelib chiqib farqlanadi. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to‘laydigan soliqlar tarkibiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning turli mamlakatlar darajasida soliq turlariga qarab tabaqaqlashadi. Fransiyada, Italiyada, Germaniyada qishloq xo‘jaligi sub’ektlari hisoblangan fermerlik kooperativlariga korporativ soliqni to‘lash bo‘yicha imtiyozlar keng tarqalgan.

Hamma rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta

ishlash bo'yicha kooperativ fermerlarga xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish vositalarini yetkazib berish, kreditlash amal qiladi. Ikki marta soliq undirishning oldini olish uchun muhim qoidalar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari qishloq xo'jaligi kooperativ shakllarini umumiy soliqqa tortishda boshqa imtiyoz va chegirmalar amal qiladi.

Qishloq xo'jaligida soliqqa tortiladigan yer asosiy ishlab chiqarish omili bo'lib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer solig'i qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'i stavkasidan ancha pastdir. Agrar sektorda bunday soliqqa tortishga yondoshish qishloq xo'jaligida soliqqa tortishning asosiy imtiyozli tamoyillarini tashkil etadi. Hamma mamlakatlarda yerni soliqqa tortishdan asosiy maqsad mahalliy byudjetni to'ldirishdir, shuning uchun yer solig'i mahalliy soliq bo'lib hisoblanadi. Yer solig'idan daromad (qurilishni ham o'z ichiga oladi) mahalliy byudjetga kelib tushadigan soliqlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Masalan, AQSh da 95%ni, Kanadada 80%ni, Germaniya va Fransiyada 75%ga yaqin mablag' jalb etiladi. Har bir mamlakatda yer solig'ini hisoblash uslubiyatlari bir-biridan farq qilib, asosan kadastr usuli amalda ko'proq qo'llaniladi.

Yerning bozor narxi hisob-kitob darajasidan ancha yuqori, buni soliq imtiyozi deb hisoblash mumkin. Qishloq xo'jaligida yer solig'inining stavkasi bir qator omillarga, ya'ni, yerdan foydalanishga, qishloq xo'jaligining asosiy faoliyatiga va sohaning rentabellik darajasiga nisbatan o'rnatilgan.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi maqsadida foydalaniladigan yerkarta soliq stavkalari pasaytirib belgilangan (asosiy holatlarda, yer narxining bir foizidan oshmaydi), chunonchi yuqori stavkalar yerdan samarali foydalanishga, yer fondiga investitsiya qo'yishga to'sqinlik qiladi. Italiyada, yer solig'ini hisoblashdagi omillar bo'lib, yer kadastro va tuzatish koeffitsientlari hisoblanadi. Tuzatish koeffitsientlari belgilangan kadastr narxini, yer fondining haqiqiy narxiga to'g'rilash uchun xizmat qiladi. Hozirda yer solig'inining o'rtacha stavkasi yer narxiga nisbatan 0,31 foiz atrofida belgilangan, ba'zi mamlakatlarga bu nisbat ancha pastroq o'rnatilgan.

Qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan sub'ektlar soliqlar bilan bir qatorda ijtimoiy to'lovlarni ham to'laydilar. Bu to'lovlar ularga davlat tizimining ijtimoiy sug'urtalaridan (kasallik, nogironlik, nafaqa yoshiga yetishidagi holatlarga) foydalanish huquqini beradi. Yuqorida ta'kidlanib o'tilganidek, kuchli davlat boshqaruv tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda ijtimoiy to'lovlar soliqlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga egadir. Fermerlar ham (boshqa tadbirkorlar singari) daromadidan ijtimoiy soliqlar to'laydilar, yollanma ishchilarining esa faqatgina ish haqidan undiriladi.

Italiyada fermerlar majburiy ravishda nogironlikni sug'urtalash jamg'armasiga va kasalliklarni sug'urtalash jamg'armasiga ijtimoiy to'lovlarni to'laydilar. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining bir yillik daromadi 6 mln.liragacha bo'lsa,

ijtimoiy to‘lovlardan ozod etiladi. Biroq hamma qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun tegishli bo‘lgan davlat tomonidan belgilangan boshqa to‘lovlarni byudjetga hisoblaydilar.

Mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy hudud doirasida soliq siyosati bo‘yicha yechiladigan masalalar hajmi va tavsifini aniqlab beradi. Ayrim mamlakatlarda mahalliy darajada qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan olinadigan soliqlar tarkibiga transport vositalariga egalik qilish solig‘i ham kiritiladi (M: Qozog‘iston Respublikasi soliq amaliyoti). Germaniyada bu soliq qishloq xo‘jaligi texnikalari egalariga (traktorlar, kombaynlar, yuk tashuvchi avtomobillar va hakoza) tegishli hisoblanib, ular tomonidan to‘lab beriladi. Soliqqa tortiladigan baza sifatida qishloq xo‘jaligi texnikasining balans narxi olinadi. Ushbu soliqni to‘lashdan sut tashuvchi va yem tashuvchi avtomobillar ozod etilgan.

Italiyada QQS ning 3 ta rejimi qishloq xo‘jaligida fermerlarning daromadlilik darajasiga qarab amal qiladi:

- 1) Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini bir yillik daromadi 10 mln.liradan oshmaydigan bo‘lsa QQSdan ozod qilinadi;
- 2) Umumiy aylanma hajmi bo‘yicha to‘lov rejimi (rejim tanlash bo‘yicha olinadi);
- 3) QQS to‘lashning me’yoriy rejimi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining qiymati 10 mln. liragacha bo‘lgan sotish hajmi to‘liq QQSdan ozod qilinadi, ya’ni, to‘langan QQS bilan olingan QQS o‘rtasidagi farq hisoblanmaydi. Ushbu holatda fermer davlatga hech qanday mablag‘ o‘tkazmaydi. Bundan tashqari bu fermerlar mazkur soliqni hisoblash hamda hisob-kitobini yuritishdan ham ozod qilinadi. Agar fermerning daromadi 10 mln.liradan oshsa, u holda fermer umumiy aylanma hajmidan QQSni to‘laydi. Fermer har yili umumiy sotish hajmi va QQS to‘langandan keyingi sotish hamda sotib olish hajmi haqidagi ma’lumotni soliq idoralariga taqdim etadi.

Umuman olganda, yuqoridagi ma’lumotlar asosida xorijiy mamlakatlarda fermer xo‘jaliklarini soliqqa tortishning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatishimiz mumkin:

- fermer xo‘jaliklari soliqlar bilan bir qatorda ijtimoiy to‘lovlarni ham to‘laydilar;
- fermer xo‘jaligiga mavsumiy yollangan ishchining faqatgina ish haqi tariqasida berilayotgan mablag‘laridan ijtimoiy to‘lovlar hisoblanadi, boshqa turdag‘ daromadlariga mazkur to‘lovdan imtiyozlar taqdim etilgan;
- qo‘silgan qiymat solig‘ini undirish bo‘yicha xorij tajribasi ahamiyatli hisoblanadi, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklari uchun ham ma’lum mezonlar asosida ushbu soliqni joriy etilganligi o‘zining samarasini bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-son Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-son Farmoni.

3.Аманов А.М. Определение налоговой задолженности // Вестник современной науки. Научно-теоретический журнал. №4. 2016. Часть 1. Стр. 77-79.

4.Аманов А.М. Приоритетные направления совершенствования налоговой системы Республики Узбекистан // ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика журнал. №5. 2017. Стр. 17-20.

5.Аманов А.М. Сельское хозяйство республики Узбекистан в условиях цифровизации экономики // «Интернаука»: научный журнал – № 19(195). Часть 4. Москва, Изд. «Интернаука», 2021. Стр. 16-19.